

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SAMAROV FAXRIDDIN URALOVICH

**O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA TARIXIY-ME’MORIY
OBIDALARNI TA’MIRLASH, QAYTA TIKLASH VA
O‘RGANILISHI TARIXI (1991-2021 yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук (PhD)
по историческим наукам**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
in historical sciences**

Samarov Faxriddin Uralovich

О‘zbekiston janubiy viloyatlarida tarixiy-me‘moriy obidalarni ta‘mirlash,
qayta tiklash va o‘rganilishi tarixi (1991-2021 yu.)..... 5

Самаров Фахриддин Уралович

История реставрации, восстановления и изучения историко-архитектурных
памятников в южных областях Узбекистана (1991-2021 гг.)..... 25

Samarov Fakhriddin Uralovich

The history of restoration, reconstruction and study of historical and
architectural monuments in the southern regions of Uzbekistan (1991–2021)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications works 54

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SAMAROV FAXRIDDIN URALOVICH

**O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA TARIXIY-ME’MORIY
OBIDALARNI TA’MIRLASH, QAYTA TIKLASH VA
O‘RGANILISHI TARIXI (1991-2021 yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Tar1042 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergasheva Yulduz Alimovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qabulov Eshbolta Atamuratovich
tarix fanlari doktori, professor

Xoliqulov Ahmad Boymaxamatovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi
(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.J. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.n, dotsent

A. Bo'riyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari, t.f.n, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi globallashtirish va modernizatsiya jarayonlari shiddat bilan kechayotgan hozirgi davrda saqlanib qolgan mavjud tarixiy-me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish, ta'mirlash, qayta tiklash va o'rganish orqali kelgusi avlodlarga yetkazish masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu vazifaning yechimini topish maqsadida YUNESKO, ICOMOS (Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni saqlash hamda muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro kengash), Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) kabi dunyoning bir qator yetakchi tashkilotlari o'z faoliyatlarini samarali tarzda olib bormoqdalar. Ozarbayjonning poytaxti Boku shahrida 2019-yil may oyida YUNESKO Butunjahon madaniy merosini o'rganishga bag'ishlangan 43-sessiyasida O'zbekistonning tarixiy-me'moriy yodgorliklari bo'yicha qo'mita tomonidan bir qator qaror va tavsiyalari berilishi, ularni saqlash va ta'mirlash masalalari turizm sohasini rivoji uchun muhimligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Jahonning AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya kabi yetakchi davlatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlarida tarixiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, qadimgi shaharlardagi obidalarni ta'mirlash, qayta tiklash va an'anaviy holatini saqlash bo'yicha salmoqli ilmiy ishlar olib borilmoqda. Tarixiy obidalarning arxitekturaviy yaxlitligini qayta tiklash va ularning tarixiy-madaniy qimmatini ilmiy tadqiq qilish jarayonlari jahon restavratsiya maktablari hamda ixtisoslashgan tadqiqot institutlari tomonidan dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda, ayniqsa, tarixiy muhitni saqlab qolish nuqtayi nazaridan me'morchilik va shaharsozlikda an'anaviylik hamda innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan barcha sohalardagi tub yangilanishlar natijasida, Vatanimiz hududlarida moziyning turli davrlarida barpo etilgan qadimiy obidalar, tarixning tilsiz guvohlari hisoblanmish minglab asori-atiqalarga bo'lgan e'tibor ham o'zgardi. Zero, "Biz xalqimizning madaniy merosini saqlashimiz va kelajak avlodlarga yetkazishimiz kerak. Ayni paytda uning tarkibiga 8000 tadan ortiq obyektlar kiradi. Afsuski, so'nggi paytlarda ba'zi bebaho yodgorliklarga yetkazilgan zarar bu masalaga beparvo munosabatda ekanligimizni ko'rsatib qo'ydi"¹. Aynan shuning uchun ham yurtimizning qadimiy shaharlarida bunyod etilgan tarixiy-madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish, ularni ta'mirlash, qayta tiklash hamda mazkur inshootlar tarixini o'rganish sohasida yanada keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekistonning janubiy hududlaridagi qadimiy yodgorliklarni o'rganish borasida amalga oshirilgan ishlarni xolisona ilmiy tahlil etib, tadqiqot doirasiga tortish ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil 24-yanvar).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari², shuningdek, 2018-yil F–5181-son “Moddiy madaniy va arxeologiya meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ–4068-son “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-martdagi 112-son “Qashqadaryo viloyat turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2021-yil 3-martdagi “Moddiy-madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shu bilan birga sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistondagi tarixiy-me‘moriy obidalarni an‘anaviy holatini saqlash, ta‘mirlash, qayta tiklash va ilmiy tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar hamda yaratilgan adabiyotlarni davriy va uslubiy yondashuv jihatidan quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida olib borilgan tadqiqotlar bo‘lib, ushbu davrda H. Vamberi, L.F. Kostenko, N.A. Mayev, I.L. Yavorskiy, A.L. Kun, N.N. Belyavskiy, M.A. Terentyev, P.P. Lyubimovlarning³ asarlarini aytib o‘tish mumkin. Mazkur asarlar tavsifiy xususiyatga ega bo‘lib, mintaqadagi tarixiy obidalarga yo‘l-yo‘lakay to‘xtalib o‘tilgan. Tabiiyki, ushbu asarlar podsho Rossiyasining siyosati ruhida yozilgan.

Ikkinchi guruhga Sovet hokimiyati davrida yaratilgan adabiyotlarga V.V. Bartold, M.E. Masson, B. Zasiqin, G.A. Pugachenkova, L.Y. Mankovskaya,

² Xalq so‘zi. 2022-yil 1-fevral, 23-(8085)-son.

³ Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 221 б.; Костенко Л.Ф. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. – Спб., 1871; Маев Н.А. Бухоро хонлиги очерклари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2012. – 180 б.; Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Авганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. Тип. М.А.Хана, Поварской. – Петербург, 1882. – 286 с.; Кун А.Л. Очерки Шахрисебзского бекства. Записки Императорского русского географического общества по отделению этнографии. Ташкент. VI. – СПб., 1880; Белявский Н.Н. Материалы по Туркестану. – Спб., 1884; Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. В 3-х т. – Спб., 1906; Любимов П.П. Религии и вероисповедный состав населения Азиатской России. – Петербург, 1914.

Z.A. Hakimov, A.A. Askarov, A. Haqqulov, Z.A. Arshavskayalar⁴ tomonidan yaratilgan asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda mintaqa tarixiy-me'moriy yodgorliklari ilmiy jihatdan birmuncha o'rganilgan bo'lib, salmoqli asarlar ham yaratilgan. Ammo mazkur nashrlarda sovet mafkurasi ta'siri sezilib turadi.

Uchinchi guruhga mustaqillik davrida nashr etilgan asarlar bo'lib, P. Zohidov, A. Haqqulov, M.Q. Ahmedov, P. Ravshanov, N. Xushvaqto'v, H. Karomatov, E.V. Rtveldze, N. Ismoilov, Ochil Bo'riyev, D. Nozilov, S. Bulatov, U. Mansurov, M.M. Vaxitov. Sh. Mirzayev. Q. Nasriddinov, O'. Xo'jayarov, H. Sattoriy, A. Choriyev, S. Tursunov, A.S. Uralov, O. Salimov, A. Xo'jayorovlarning⁵ asarlarini aytib o'tish mumkin. Qarshi va Shahrisabz shaharlarining 2700 yillik yubileyi munosabati bilan "Qarshi" va "Shahrisabz ming yillar merosi" nomli albom-kitoblar nashrdan chiqarildi. Shuningdek, R.B. Abriyev, Z. Rajabova,

⁴ Бартольд В.В. Ислам. – Соч. Т.6. – Москва, 1966; Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. – Ташкент, 1935; Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улутбеке // Труды САГУ, вып. XIX. – Ташкент, 1953; Шу муаллиф. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен (Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ (1965-1966.)). – Ташкент: Фан, 1973; Засыпкин Б. Архитектура Средней Азии древних и средних веков. – Москва: Издательство Академии архитектуры СССР, 1948; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана, 1958; Шу муаллиф. Халчяан к проблеме художественной культуры северной Бактрии. – Ташкент: Фан, 1966; Шу муаллиф. Термез, Шахрисабз, Хива. – Москва: Искусство, 1976; Г.А. Пугаченкова, Э.В. Ртвеладзе. Северная Бактрия-Тохаристан. – Ташкент: Фан, 1990; Маньковская Л.Ю. Кашкадарё вохасининг архитектура ёдгорликлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979; Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1982; Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент: Фан, 1983; Ҳаққулов А. Тарихий ёдгорликларни таъмирлаш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Аршавская З.А. Жарқурғон минораси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1984; Шу муаллиф. Таъмир санъати. – Тошкент: Мехнат, 1991.

⁵ Зоҳидов П. Темур даврининг меъморий қаҳқашони. – Тошкент: Шарқ, 1992; Шу муаллиф. Меъмор олами. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996; Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995; Равшанов П. Қашқадарё тарихи (энг қадимги даврлардан XIX аср II ярмига қадар). – Тошкент: Фан, 1995; Шу муаллиф. Қарши тарихи. – Тошкент. Янги аср авлоди, 2006; Шу муаллиф. Шаҳрисабз тарихи (энг қадимги даврлардан XX аср I чорагигача). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011; Шу муаллиф. Оқсарой тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016; Равшанов П., Хушвақтов Н. Қашқадарё тарихига саёҳат. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020; Шаҳрисабз: минг йиллар мероси. Масъул муҳаррир: Кароматов Ҳ. – Тошкент: Шарқ, 2002; Ртвеладзе Э.В. ва бошқ. Қарши. – Тошкент: Маънавият, 2006; Исмоилов Н., Бўриев О. Қарши – Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри. – Қарши: Насаф, 2006; Нозилов Д. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер. Монография. – Тошкент: Фан, 2005; Шу муаллиф. Ўрта Осиё меъморчилигида одатлар, қоидалар ва рамзий ифодалар. – Тошкент: Санъат, 2011; Булатов С., Мансуров У. Миллий меъморчиликда амалий санъат фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2005; Шу муаллиф. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XII вв. Антикварные книги. – Москва, 1978; Вахитов М.М., Мирзаев. Ш.Р. Меъморчилик (I қисм. Меъморчилик тарихи). – Тошкент: Тафаккур, 2010; Насриддинов Қ., Хўжайаров Ў. Қарши шаҳрининг меъморий ёдгорликлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011; Шу муаллиф. Қарши тарихининг ривожланиш босқичлари. – Қарши: Интеллект, 2022; Сатторий Ҳ. Ҳазрат Соҳибқирон: Тўлдирилган ва қайта ишланган 2-нашр. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2016, Шу муаллиф. Соҳибқирон абадияти. Тўлдирилган ва қайта ишланган 2-нашр. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2016; Чориев А. Ҳазрати Султон тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019; Шу муаллиф. Ҳазрати Башир тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022; Гурсунов С., ва бошқ. Ўзбекистон жанубий худудларида маданий ва амалий санъат ёдгорликлари тарихи; Шу муаллиф. Термиз шаҳри тарихи. Монография. – Тошкент: Янги нашр, 2019; Шу муаллиф. Сурхон воҳаси архитектураси: ўтмиш ва бугун. – Тошкент: Янги нашр, 2014; Шу муаллиф. Сурхондарё вилояти туризм салоҳияти. Монография. – Тошкент: Тафаккур, 2020; Уралов А.С., Ҳаққулов А.Ғ., Абдураимов Ш.М. Архитектура ёдгорликларини таъмирлаш ва қайта тиклаш тамойиллари. Монография. – Самарқанд, СамДУ, 2020; Салимов О. Ўзбекистон архитектура ёдгорликларини сақлаш ва улардан фойдаланиш. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2020; Бўриев О, Хўжаёров А. Темурийлар даврида Туркистон зиёратгоҳлари. Монография. – Тошкент: Ворис, 2022.

M. Rasulov, S.N. Jo'rayeva, J. Savriyev, S. Safarov, M. Allayevlar⁶. tomonidan yurtimiz turli hududlarida joylashgan ko'hna obidalarni ta'mirlash, saqlash va muhofaza qilish hamda ushbu yodgorliklarni ziyorat turizmni rivojlantirishdagi o'rni to'g'risida dissertatsiyalar yoqlanib, monografiyalar chop ettirilgan. Jumladan, S.N. Jo'rayeva O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rnini tadqiq etgan. R.B. Abriyev tadqiqotida tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash tarixini Zarafshon vohasi misolida, M. Allayev dissertatsiyasida esa tarixiy-madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va muhofaza qilish tarixi Qashqadaryo viloyati misolida ochib berilgan. Istiqloq davrida ushbu mavzu bo'yicha yaratilgan tarixiy asarlar xolisona, milliy mafkura g'oyalari asosida yaratilgan. Lekin o'rganilayotgan mintaqa tarixiy-me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash, qayta tiklash va muhofaza qilish bo'yicha alohida maxsus dissertatsiya ishi bajarilmagan.

To'rtinchi guruh xorijiy davlatlarda chop etilgan adabiyotlar bo'lib, bu borada Y. Skayler, L.N. Sobolev, E.R. Christiye, Mehdi Ebadi, T. Dadabayev⁷ va boshqalar tomonidan yaratilgan asarlar hamda ilmiy maqolalar ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu adabiyotlarga nazar tashlasak, ularda tarixiy-me'moriy obidalarni saqlash va muhofaza qilish bayon etilgan bo'lsa-da, o'rganilayotgan mintaqa bo'yicha ma'lumotlar kam uchraydi. Lekin shunga qaramasdan mazkur asarlardan dissertatsiya ishini tayyorlashda tayanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili O'zbekiston janubiy viloyatlardagi tarixiy-me'moriy yodgorliklarni qayta tiklash, ta'mirlash va o'rganish tarixi ochib berilmaganligini ko'rsatadi. O'zbekistonning janubiy viloyatlaridagi tarixiy-me'moriy obidalarni an'anaviy holatini saqlash, ta'mirlash, qayta tiklash va o'rganilishi jarayonlarini tarixiylik aspektida ilmiy tadqiq qilish zaruratini taqozo etadi.

⁶ Абриев Р.Б. Ўзбекистон мустақиллиги йилларида тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш жараёнлари. Монография. – Тошкент: Фан, 2015. – 192 б.; Шу муаллиф. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарафшон воҳаси мисолида). Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – 53 б.; Rajabova Z. Xorazm viloyati tarixiy merosi va yodgorliklarining ma'naviyatni yuksaltirishdagi ahamiyati (1991-2020 yillar). – Nukus, 2020. – 20 b.; Расулов М.Ф. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларнинг аҳволи ҳамда уларга бўлган муносабатнинг трансформацияси (1980-2019 йй.). Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD). дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – 55 б.; Шу муаллиф. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларнинг аҳволи ҳамда уларга бўлган муносабат (1980-2019 йй). Монография. – Фарғона: Classic, 2021. – 173 б.; Жўраева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий худудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. Монография. – Тошкент: O'zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi, 2021. – 332 б.; Savriyev J. Navoiy viloyati tarixiy yodgorliklari ta'mirlanishining asosiy yo'nalishlari (1991-2020 yillar). Buxoro, 2022. – 182 b.; Safarov S. Mustaqillik yillarida janubiy O'zbekistonda madaniy meros obyektlari va zamonaviy turizmning rivojlanish jarayonlari. – Toshkent, 2023. – 157 b.; Allayev M.Ch. Qashqadaryo viloyati tarixiy-madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va muhofaza qilish tarixi (1991–2021 yy.) Tarix fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss... avtoref. – Qarshi, 2024. – 56 b.

⁷ Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – 336 б.; Sobolev L.N. Latest history of the Khanates of Bokhara and Kokand. Translated from the Russian of the "Turkestan gazette" for by P. Mosa Calcutta: foreign department press, Council Hause Street. 1976; Through Khiva to golden Samarkand. The remarkable story of a woman's adventurous journey alone through the deserts of Central Asia to the heart of Turkestan. Philadelphia, 1925; Mehdi Ebadi Shrine Pilgrimage (Ziyarat) in Turco-Iranian Cultural Regions, 2016. Dadabaev T. Religiosity and Soviet 'modernisation' in Central Asia: locating religious traditions and rituals in recollections of antireligious policies in Uzbekistan2014/tps://www.researchgate.net/publication/273959452 Religiosity_and_Soviet_modernisation_in_Central_Asia_locating_religious_traditions_and_rituals_in_recollection_s_of_antireligious_policies_in_Uzbekistan

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga ko'ra O'zbekiston tarixi kafedrasining "Janubiy O'zbekiston tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasining dolzarb muammolari" bosh mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1991–2021-yillarda O'zbekistonning janubiy viloyatlaridagi tarixiy-me'moriy obidalarni an'anaviy holatini saqlash, ta'mirlash, qayta tiklash va o'rganilishi jarayonlarini tahlil etish va tizimli ravishda tarixiy nuqtayi nazardan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda tarixiy-me'moriy yodgorliklarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini ilmiy tahlil qilish;

1991–2021-yillarda O'zbekistonda tarixiy-me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosatidagi tub o'zgarishlarning mohiyatini ochib berish;

Janubiy O'zbekiston, ya'ni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududida joylashgan tarixiy-me'moriy obidalarining geografik joylashuvini tavsiflash;

mintaqadagi madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish jarayonlarini yoritib berish;

o'rganilayotgan davrda mintaqa hududida joylashgan tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlarini o'rganish;

hududdagi tarixiy-me'moriy yodgorliklarni qayta tiklash hamda ta'mirlash bo'yicha xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari va innovatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni bayon etish;

tarixiy-me'moriy yodgorliklarning turizmni rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni uyushtirishdagi ahamiyatini ochib berish;

tadqiqotning ilmiy xulosalari asosida mintaqada madaniy meros obyektlarini asrash bo'yicha ishlarni takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida mustaqillik yillarida Janubiy O'zbekiston hududidagi tarixiy-me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi qadimiy obidalarni ta'mirlash, qayta tiklash, an'anaviy holatini saqlash va ularni o'rganish bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni tahlil etish hamda yoritib berishni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borish jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tavsiflash, tasniflash, og'zaki tarix, shaxsiy kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonning janubiy hududlarida joylashgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash, qayta tiklash, saqlash va muhofaza qilish ishlari asosan shahar markazlarida joylashgan yirik ko'hna obidalarda amalga oshirilganligi va faqat binoning tashqi (fasad) qismlari bir yoqlama, juz'iy ta'mirlangani kabi salbiy holatlar tarixiy-me'moriy yodgorliklar misolida asoslangan;

Istiqlol yillari davomida O‘zbekistonning janubiy viloyatlaridagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarda amalga oshirilgan tuzatish, ta‘mirlash va qayta tiklash ishlari asosan uch yo‘nalishda olib borilganligi: *birinchi*, tarixiy shaxslar (buyuk sarkarda, mutafakkir, pir va shayx)ning tavallud sanalari keng nishonlanishi munosabati bilan; *ikkinchi*, tarixiy shaharlarning yubiley sanalari munosabati bilan xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirlar asnosida, *uchinchisi*, mahalliy ahamiyatga ega obidalarining homiylik hisobidan ta‘mirlanishi bo‘yicha ishlar olib borilgani dalillangan;

Ko‘hna obidalarda mustaqillikning dastlabki yillarida olib borilgan ta‘mirlash, qayta tiklash hamda saqlash ishlari aksariyat holatda soha mutaxassislari tomonidan olib borilmaganligi natijasida ba‘zi qadimiy majmualarda zamonaviy qurilish materiallari (tunuka, shifer, temir, beton)ning ko‘p miqdorda qo‘llanishi oqibatida ushbu yodgorliklar an‘anaviy qiyofasiga jiddiy zarar yetkazilganligi aniqlangan;

Yangi O‘zbekiston sharoitida tarixiy-me‘moriy yodgorliklarda ta‘mirlash, qayta tiklash, saqlash va muhofaza qilish ishlarini tashkil etish ilmiy asosda tizimli amalga oshirilayotganligi hamda tarixiy madaniy meros obyektlariga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar va tadqiqotchilar soni kundan-kunga ortib borayotgani ikkala viloyat turizm salohiyatining rivojiga ijobiy ta‘sir qilayotgani tahlillar asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubiy O‘zbekiston hududida joylashgan qadimiy yodgorliklarni saqlash, ta‘mirlash va qayta tiklash jarayonlarida milliy me‘morchilik uslubini saqlagan holda zamonaviy yondashuvlar asosida amaliy taklif va tavsiyalar berilgan;

1991–2021-yillar davomida O‘zbekiston hududidagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarni saqlash, mustahkamlash, ta‘mirlash va qayta tiklash borasida davlat siyosati mohiyatining takomillashib borganligi bayon etilgan;

tadqiqotning fanlararo (tarix, arxeologiya, me‘morshunoslik va san‘atshunoslik) xususiyati Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining turli hududlarida joylashgan madaniy meros obyektlari bo‘yicha bir qator muammolarni o‘rtaga qo‘yish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa dissertatsiyaning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda zamonaviy tarix fanida tan olingan yondashuv va usullar qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi tarixiy manba va adabiyotlardan hamda og‘zaki tarix metodlari va axborotchilardan olingan audio materiallardan foydalanilgani, dala materiallari, tanlangan manbalarning tadqiqot predmeti va maqsadiga muvofiqligi hamda birlamchi tarix manbalariga asoslanganligi, xolislik tamoyillarining qo‘llanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati mustaqillik yillarida ta‘mirlash va qayta tiklash ishlari olib borilgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi qadimiy inshootlarni tadqiq etish,

mazkur hududlarda ziyorat turizmi sohasini yanada keng rivojlantirish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqotning amaliy natijasi shundaki, undan “O‘zbekiston tarixi”, “Me‘morshunoslik”, “San‘atshunoslik”, “Tarixiy yodgorliklarni ta‘mirlash san‘ati” kabi fanlar bo‘yicha darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarni boyitish ishlarida keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sobiq Ittifoq davrida O‘zbekistonning janubiy hududlarida joylashgan tarixiy-me‘moriy yodgorliklarni ta‘mirlash, qayta tiklash, saqlash va muhofaza qilish ishlari asosan shahar markazlarida joylashgan yirik ko‘hna obidalarda amalga oshirilganligi va faqat binoning tashqi (fasad) qismlari bir yoqlama, juz‘iy ta‘mirlangan. Bu esa mustaqillik davriga qadar yurtimizdagi ayrim qadimiy obidalarning butunlay yo‘q bo‘lib ketganligini asoslashda foydalanilgan (“O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi teleradiokanali” davlat muassasasining 2022-yil 23-sentabrdagi 02-29-1578-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy tadqiqot natijalarining qo‘llanilishi yurtimizdagi me‘moriy yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilish ishlarini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan.

Istiqlol yillari davomida O‘zbekistonning janubiy viloyatlaridagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarda amalga oshirilgan tuzatish, ta‘mirlash va qayta tiklash ishlari asosan uch yo‘nalishda olib borilganligi: *birinchi*, tarixiy shaxslar (buyuk sarkarda, mutafakkir, pir va shayx)ning tavallud sanalari keng nishonlanishi munosabati bilan; *ikkinchi*, tarixiy shaharlarning yubiley sanalari munosabati bilan xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirlar asnosida, *uchinchisi*, mahalliy ahamiyatga ega obidalarning homiylik hisobidan ta‘mirlanishi bo‘yicha ishlar olib borilganiga oid dalillardan Madaniy meros agentligi tomonidan foydalanilgan (Madaniy meros agentlining 2022-yil 19-sentabrdagi 01-05/2925-son ma‘lumotnomasi). Bu esa ikkila viloyat hududlarida joylashgan tarixiy-me‘moriy yodgorliklarning an‘anaviy qiyofasini saqlab qolish, hududdagi qadimiy obidalarni ta‘mirlash va qayta tiklash ishlarini yanada yaxshilash, ushbu hududdagi tarixiy-me‘moriy obyektlarga tashrif buyuruvchi sayyohlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada rivojlantirish, mintaqa viloyatlaridagi Madaniy meros boshqarmalarining faoliyatlarida obidalarga oid bo‘lgan ma‘lumotlarni ilmiy jihatdan asoslashga yordam bergan.

Ko‘hna obidalarda mustaqillikning dastlabki yillarida olib borilgan ta‘mirlash, qayta tiklash hamda saqlash ishlari aksariyat holatda soha mutaxassislari tomonidan olib borilmaganligi natijasida ba‘zi qadimiy majmualarda zamonaviy qurilish materiallari (tunuka, shifer, temir, beton)ning ko‘p miqdorda qo‘llanilishi oqibatida ushbu yodgorliklar an‘anaviy qiyofasiga jiddiy zarar yetkazilganligini to‘g‘risidagi ma‘lumotlar obidalarni qayta rekonstruksiya ishlarida foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya fondining 2022-yil 20-sentabrdagi 01-34-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalarning qo‘llanilishi mamlakatimizdagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarni asl holatini saqlash va muhofaza qilish ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar targ‘ibotida asosiy sohalardan biri ekanligini asoslab berishda imkon bergan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida tarixiy-me‘moriy yodgorliklarda ta‘mirlash, qayta tiklash, saqlash va muhofaza qilish ishlarini tashkil etish ilmiy asosda tizimli amalga oshirilayotganligi hamda tarixiy madaniy meros obyektlariga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar va tadqiqotchilar soni kundan-kunga ortib borayotgani ikkala viloyat turizm salohiyatining rivojiga ijobiy ta‘sir qilayotgani va ziyorat turizmi sohasini rivojlantirish yurtimiz iqtisodiyotining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sanalishiga doir ma‘lumotlar targ‘ibot ishlarini olib borishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat-ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2022-yil 14-oktabrdagi 312-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijalarning qo‘llanilishi ziyorat turizmi sohasini rivojlantirishda, yurtimizda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar targ‘ibotida hal qiluvchi sohalardan biri ekanligini asoslab berishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnallar va konferensiyalarda 7 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘lib, tadqiqot ishi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mustaqil O‘zbekistondagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarni muhofaza qilish bo‘yicha davlat siyosati”** deb nomlangan birinchi bobining *birinchi paragrafida* O‘zbekiston janubiy hududlaridagi tarixiy-me‘moriy obidalarning sovet hukumati davridagi ahvoli o‘rganilgan.

Mamlakatimiz hududida kechgan turli tarixiy jarayonlar, tabiiy-iqlim o‘zgarishlari va inson faoliyatining ta‘siri natijasida XX asr oxirida islom dinigacha bo‘lgan boy ko‘hna yodgorliklar hamda o‘rta asrlar davrining tarixiy-me‘moriy obidalarining aksariyat qismi arxeologik yodgorliklar⁸ sifatida yetib kelgan.

⁸ Абриев Р.Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарафшон воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... – Самарқанд, 2018. – Б. 15.

1932-yilda V.G. Shuxov boshchiligida Qarshi va G‘uzor hududida joylashgan bir nechta tarixiy-me‘moriy yodgorliklarda o‘rganish ishlari olib borilgan⁹. Shuningdek, yana bir yirik ilmiy ekspeditsiya Uzkomstaris mablag‘i hisobidan 1936–1938-yillarda M.E. Masson, Y.G. G‘ulomov va T. Mirg‘iyosov ishtirokida Surxondaryo viloyatining qadimiy Ayritom manzilgohida olib borilgan. Ta‘kidlash lozimki, ushbu ilmiy izlanishlar yurtimiz hududida shu davrga qadar amalga oshirilgan eng yirik tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Uning natijasi o‘laroq shu yillarda ikki jildlik to‘plam e‘lon qilingan¹⁰.

Termiz arxeologik kompleksi ekspeditsiyasi (TAKE) M.E. Masson rahbarligida 1936–1937-yillarda Termizdagi Shohlar saroyida olib borilgan keng ko‘lamdagi o‘rganishlar davomida uning tarhi va poydevorining o‘lchamlari aniqlangan¹¹. Ushbu ekspeditsiya davomida B.P. Denike va B.N. Zasiptkin tomonidan qadimiy saroyning me‘moriy yechimi alohida tadqiq etilib, yodgorlikning mazkur davrdagi saqlanib qolgan qismini foto tasvirga tushirilib, o‘z hisobotlarda ko‘rsatib o‘tganlar.

O‘zbekiston SSR hukumati 1945–1947-yillarda mamlakat hududidagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarni qayta tiklash va ta‘mirlash ishlari uchun davlat byudjeti hisobidan 1 (bir) million 800 ming rubl ajratilib, ushbu mablag‘ hisobiga shu yillarda respublikadagi 22 ta madrasa, ko‘hna xonaqoh va bir nechta qadimiy daxma va majmualarni ta‘mirlash ishlari olib borilgan¹². Xususan, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahridagi XIV asrga oid bo‘lgan Oqsaroy majmuyida ushbu reja asosida 50 ming rubl miqdoridagi tuzatish, mustahkamlash va ta‘mirlash amaliyotlari bajarilgan¹³.

Shahrisabz shahridagi Malik Ajdar masjidini o‘rganish hamda ta‘mirlash loyihalarini ishlab chiqish maqsadida Me‘moriy yodgorliklarni ishlab chiqarish bosh boshqarmasi tomonidan 1977–1978-yillarda tarixiy inshoot hududida tadqiqot ishlari olib borilgan¹⁴. Ushbu o‘rganishlar jarayonida qadimiy yodgorlik uzoq yillar davomida suv hamda nam ostida qolishi, o‘z vaqtida tuzatish ishlari bajarilmaganligi sababli buzilib ketish holatiga kelib qolganligi ma‘lum bo‘lgan. Qadimiy yodgorlikda 1982-yilda UzNIPI restavratsiya xodimlari tomonidan amalga oshirilgan ta‘mirlash va tuzatish ishlari ham mablag‘ yetishmasligi sababli oxiriga qadar yetkazilmagan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot jarayonida yurtimizda 1960-yilning boshlarida 30 mingtaga yaqin madaniy meros yodgorliklari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, paxta dalalarining kengayishi, ko‘hna obidalardagi yemirilishlar va buzilishlar natijasida XX asrning 80-yillarida bu kabi tarixiy obyektlarning soni 9 mingtaga

⁹ Нечкин Д.И. Туркестанский комитет по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы. – Наука и просвещение. – Ташкент, 1922. – № 2. – С. 222.

¹⁰ Surxondaryo viloyat madaniy meros boshqarmasining hisobot materiallari. 2021-yil.

¹¹ Нозилов Д. Термиз шохлар саройи ички кўринишини қайта тиклаш. – Мозийдан садо. – Тошкент: Шарқ, 2003. 2,18-сон. – Б. 20.

¹² Allayev M.Ch. Qashqadaryo viloyati tarixiy-madaniy meros obyektlarini ta‘mirlash va muhofaza qilish tarixi (1991–2021 yy). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoreferat. – Qarshi, 2024. – B. 14.

¹³ Shu asar.

¹⁴ Madaniy meros agentligining hisobot materiallari. 2021-yil.

yaqini saqlanib qolganligi, 90-yillarda esa ularning soni atigi 5391 tani tashkil qilganligi¹⁵ ma'lum bo'ldi. Bu borada shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, o'tgan XX asrning oxirgi 30 yili ichida (1960–1990-yy) O'zbekistondagi 20 mingtadan ortiq madaniy meros obyektlari yo'qotilgan. Bu tarixiy obidalarning katta qismini arxeologik yodgorliklar tashkil etadi.

XX asrning 80-yillarida yurtimiz hududidagi yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash borasidagi ishlar uchun ajratilgan mablag'lar ham ayni joylarda sarf etilgan bo'lsa-da, ulardan kutilgan ijobiy natija rejadagi kabi bo'lmagan. Buning asosiy sababi esa aynan shu davrda tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirdan chiqarish maqsadida amalga oshirilgan amaliy ishlar davomida zamonaviy qurilish ashyolaridan keng foydalanilganligi ko'hna inshootlarning asl ko'rinishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan¹⁶.

Umuman olganda, Sovet hokimiyati davrida mamlakatimiz hududida joylashgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash, qayta tiklash, saqlash va muhofaza qilish ishlari, asosan, bir tomonlama olib borilgan bo'lib, bu boradagi ishlar faqatgina shahar markazlarida joylashgan yirik tarixiy obidalarda amalga oshirilgan.

Birinchi bobning *ikkinchi paragrafida* mustaqillik davrida O'zbekistonda tarixiy-me'moriy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosatidagi o'zgarishlar ochib berilgan.

1993-yil 1-iyundagi Madaniyat ishlari vazirligining buyrug'iga asosan mazkur vazirlik tasarrufida bo'lgan O'zbekiston madaniy yodgorliklarni ilmiy tekshirish va loyihalash instituti hamda Loyiha konstruktorlik va texnologik byurosi negizida, Respublika madaniy yodgorliklarni ilmiy tekshirish va texnologik loyihalash (O'ZNIPTI restavratsiya) instituti tashkil etilib, uning Nizomi tasdiqlandi¹⁷. Ko'hna me'moriy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va qayta tiklash borasida amalga oshirilgan ishlardan yana biri Madaniyat ishlari vazirligi huzurida yodgorliklarni saqlash bosh boshqarmasi tomonidan madaniy merosni asrash bo'yicha qonun ishlab chiqilib, tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash ishlari "Me'mor" uyushmasiga topshirilgan¹⁸.

1996–1997-yillarda "Ochiq osmon ostida" tarixiy-me'moriy, tabiiy-arxeologik, o'lkashunoslik qo'riqxonalari va muzeylarni takomillashtirish borasida Xiva, Buxoro va Samarqand shaharlaridagi mavjud ko'hna me'moriy qo'riqxonalarining ish faoliyatlarini yanada takomillashtirish borasida mazkur viloyat hokimlariga bir nechta takliflar yuborilgan. Va aynan shu yillarda Qarshi va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlarida ham me'moriy qo'riqxonalar tashkil etish borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilgan¹⁹.

Madaniy meros yodgorliklarini saqlash va muhofaza qilish ishlarini har tomonlama amalga oshirilishida mustaqillik yillarida qabul qilingan huquqiy-

¹⁵ Курбонова Г. Аждодлар меросини асрайлик.-Мозийдан садо. – Тошкент: Шарк, 2003. 2.(18)-сон. – Б. 6-7.

¹⁶ Зоҳидов Ф., Зоҳидов Р. Авайлайлик. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1 (3001)-сон. 1989. 1 январь.

¹⁷ O'zMA, M-7 fond, 1-ro'yxat, 60-ish, 6-varaq.

¹⁸ O'zMA, M-7 fond, 1-ro'yxat, 9-ish, 14-varaq.

¹⁹ O'zMA, M-7 fond, 1-ro'yxat, 503-ish, 35-varaq.

me'yoriy hujjatlar ham muhim sanaladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik Kodeksining 64-moddasida madaniy meros yodgorliklarini muhofazasi to'g'risida quyidagilar qayd etilgan: "Davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyektlarining qo'riqlanadigan tegralarida, alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarda, shu jumladan, o'zining tarixiy-madaniy qimmatiga ko'ra Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlarda va ularning qo'riqlanadigan tegralarida moddiy madaniy meros obyektlari hisoblanmagan binolar, inshootlar hamda boshqa obyektlarni belgilangan tartibda ruxsatnoma olmasdan qurish yoki buzish²⁰" ishlarini amalga oshirish mumkin emasligi belgilangan.

Mustaqillik yillarida davlat tomonidan tarixiy-me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan eng muhim ishlardan yana biri madaniy meros obyektlari ro'yxatini shakllantirish amaliyoti hisoblanadi. Sobiq Madaniyat va sport ishlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2005–2008-yillarda respublikamizda 3945 ta tarixiy obyektlar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 64 tasida kadastr ishlari amalga oshirilgan²¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4068-son Qarori qabul qilindi²². Ushbu qaror Yangi O'zbekistondagi tarixiy-me'moriy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va qayta tiklash bo'yicha yangi davrni boshlab berdi. Mazkur qarorda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar mazkur dissertatsiyada batafsil bayon etilgan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni aytish mumkinki, so'nggi yillarda madaniy meros obyektlarini saqlash, muhofaza qilish, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari uchun davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar ham yildan-yilga sezilarli darajada oshirib borilgan. Xususan, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun 2015-yilda 11 mlrd. 500 mln, 2016-yilda 22 mlrd. 832 mln., 2017-yilda 28 mlrd. 848 mln., 2018-yilda 46 mlrd. 569 mln. so'm., 2019-yilda 67 mlrd. so'm mablag' ajratilgan²³.

Madaniy meros agentligi axborot xizmati ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hukumatining tegishli qaroriga asosan, 2022-yilda investetsiya dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar hisobidan respublika hududidagi 37 ta madaniy meros obyektlarida restavratsiya ishlariga 84,8 mlrd. so'm mablag' ajratilib, ushbu tarixiy obidalarni ta'mirlash bo'yicha loyihalar ishlab chiqilib, ilmiy ekspert kengashidan o'tkazilgan²⁴.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил. 3-сон; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, 9-сон, 193-модда.

²¹ Abriyev R.B. Ko'rsatilgan asar. – B. 62.

²² "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil 20-dekabr. – № 263 (7221).

²³ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. Ўзбекистон Республикаси маданият вазири Б. Сайфуллаевнинг "Маданий мерос объекtlарини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни ижроси ҳақида"ги ахбороти тўғрисида. <https://lex.uz/docs/5221707>.

²⁴ Madaniy meros agentligi axborot xizmati ma'lumoti. <https://telegra.ph/ZHorij-jilda-37-ta-madaniy-meros-obyektida-restavratsiya-ishlari-uchun-%D2%9Barijb-85-mlrd-s%D1%9Em-azhratiladi-08-10>.

Xullas, O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab madaniy meros obyektlariga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu boradagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarning muhofazasini amalga oshirilishiga doir qabul qilingan qonun, farmon va qarorlar katta ahamiyat kasb etdi.

Dissertatsiyaning **“Janubiy O‘zbekistondagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarning geografik joylashuvi, tasnifi va ta‘mirlash jarayonlari”** deb nomlangan ikkinchi bobining *birinchi paragrafida* mintaqadagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarning geografik hududiy joylashuvi va tasnifi ochib berilgan.

Janubiy O‘zbekiston hududida joylashgan tarixiy shaharlar qadimiyligi jihatidan faqatgina Markaziy Osiyoda emas, dunyoning eng qadimgi shaharlari qatoridan ham joy olgan. Ushbu hududlarda yoshi qariyb uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan Qarshi, Kasbi, Shahrisabz, Boysun, Termiz kabi shaharlar joylashgan. O‘tgan ming yillik tarix silsilasida mazkur mintaqalarda bir qator tarixiy-me‘moriy yodgorliklar barpo etilgan bo‘lib, bugungi kunda ularning ayrimlari YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Olib borilgan tadqiqot va o‘rganishlarga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida asrlar davomida barpo etilgan hamda shakllangan tarixiy-me‘moriy yodgorliklarni geografik hududiy joylashuvi jihatidan quyidagi guruhlariga tasniflash mumkin:

- 1) Qarshi shahri, Qarshi va Koson tumanlaridagi qadimiy inshootlar;
- 2) Shahrisabz shahri, Shahrisabz, Yakkabog‘, Kitob tumanlari hududida joylashgan ko‘hna imoratlar;
- 3) Chiroqchi va Qamashi tumanlaridagi tarixiy obidalar;
- 4) Nishon, G‘uzor, Dehqonobod tumanlarida joylashgan tarixiy yodgorliklar;
- 5) Kasbi, Muborak, Mirishkor tumanlaridagi tarixiy-me‘moriy inshootlar.

Surxondaryo viloyatida bir necha asrlar davomida bunyod etilgan hamda shakllangan qadimiy yodgorliklarni geografik-hududiy joylashuvi jihatidan quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

- 1) Termiz shahri, Termiz, Angor, Muzrabot tumanlaridagi qadimiy inshootlar;
- 2) Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Qiziriq, Sho‘rchi tumanlari hududida joylashgan ko‘hna imoratlar;
- 3) Sherobod, Boysun hamda Sariosiyo tumanlaridagi tarixiy obidalar.
- 4) Oltinsoy, Denov, Uzun tumanlari hududida joylashgan tarixiy yodgorliklar;

O‘tgan XX asrning 40-yillarida Qarshi va Shahrisabz hududlarida joylashgan tarixiy-me‘moriy yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilish borasida yetarlicha ishlar amalga oshirilmagan²⁵. Bu haqda V. Zasiqkin Janubiy O‘zbekiston hududida bir necha yillar davomida olib borgan tadqiqotlarida ham alohida to‘xtalib quyidagi ma‘lumotlarni keltirgan: “Shahrisabzdagi Gumbazi Sayyidon, Jahongir mirzo maqbarasi va Shamsiddin Kulol yodgorligi bir necha yillar davomida e‘tibordan chetda qolganligi sababli achinarli holga kelib qolgan²⁶”. Shuningdek, muallif o‘z qaydlarida Oqsaroy obidasining ham katta qismi nurab yotganligini alohida qayd etib o‘tgan²⁷.

²⁵ O‘zMA, R-2296 fond, 1-ro‘yxat, 247-ish, 19-varaq.

²⁶ O‘zMA, R-2296 fond, 1-ro‘yxat, 247-ish, 19-varaq.

²⁷ O‘zMA, R-2296 fond, 1-ro‘yxat, 247-ish, 20-varaq.

Amir Temur va temuriylar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir tarixiy-me‘moriy yodgorlik Surxondaryo viloyatidagi X-XVII asrlar davomida shakllangan Sulton Saodat majmuasi bo‘lib, ushbu obidalarning asosiy binolarida aynan 1995–1996-yillar davomida ta‘mirlash va tuzatish ishlari olib borilib, ushbu ko‘hna majmuani ichki turizm marshrutiga kiritish bo‘yicha amaliy tadbirlar ishlab chiqildi²⁸.

Umuman olganda, shuni aytish mumkinki, Janubiy O‘zbekiston hududlarida joylashgan tarixiy-me‘moriy yodgorliklar barpo etilishi hamda shakllanish jihatidan bir-biriga yaqin va o‘xshash bo‘lib, bu o‘xshashlikni mazkur qadimiy imoratlarning umumiy ko‘rinishi, bunyod etilish tarixi, qurilish materiallarida ham ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchi bobning *ikkinchi paragrafida* Tarixiy-me‘moriy obidalarni ta‘mirlash, qayta tiklash va o‘rganish jarayonlarining ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi ijtimoiy-madaniy sohada ham tub o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Eng muhimi yurtimizda mavjud bo‘lgan ko‘plab madaniy meros yodgorliklarini ta‘mirlash, qayta tiklash, saqlash va muhofaza qilish jarayonlari borasida ham keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi. 1990–1991-yillardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida jami 1544 ta madaniy meros obyektlari ro‘yxatga olingan bo‘lib, ulardan 990 tasi arxeologik, 350 tasi monumental san‘at yodgorligi, 300 taga yaqini tarixiy-me‘moriy, 206 ta arxeologik obyektlar esa Respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan qadimiy manzillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan²⁹.

Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi nishonlanishi arafasida Shahrizabz hududidagi bir qator tarixiy-me‘moriy yodgorliklarda ta‘mirlash va qayta tiklash ishlari olib borilgan. Jumladan, 1992-yilda jami 2 mln., 792 ming so‘m miqdoridagi ta‘mir ishlari bajarilgan bo‘lsa, 1993-yilda mazkur hududdagi Shamsiddin Kulol va Gumbazi Sayyidon maqbaralari, Chorsu savdo gumbazi, Hazrati Imom masjidi, qadimiy hammom va boshqa bir qator ko‘hna yodgorliklarda 9,8 mln. so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari hisobiga ta‘mirlash, tuzatish va qayta tiklash ishlari amalga oshirilgan³⁰.

Shuningdek, 1992–1993-yillar davomida Ta‘mir instituti tomonidan Jahongir mirzo maqbarasi qoldiqlarini gidrogeologik holati o‘rganilib, ushbu qadimiy obidani muhofaza qilish bo‘yicha choralar ishlab chiqilgan³¹ bo‘lsa, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 630-sonli qaroriga³², asosan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududida joylashgan bir qator tarixiy-me‘moriy

²⁸ O‘zMA, M-7 fond, 1-ro‘yxat, 187-ish, 12-varaq.

²⁹ O‘zMA, R-2296 fond, 7-ro‘yxat, 530-ish, 36-39-varaqlar.

³⁰ O‘zMA, M-7 fond, 1-royxat, 58-ish, 18-varaq.

³¹ O‘zMA, M-7 fond, 1-royxat, 58-ish, 18-varaq.

³² Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги 630-сонли Қарори, 1994 йил 29 декабрь. <https://lex.uz/ru/docs/2329020>.

yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va muhofaza qilish bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ushbu Qarorga muvofiq, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz va Termiz shaharlaridagi 25 tadan ortiq tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash ishlari uchun 474,5 mln. so'm hajmida mablag' ajratildi³³. Shuningdek, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida Amir Temurga haykal o'rnatish uchun 30,0 mln. so'm miqdoridagi pul mablag'lari sarflandi³⁴.

Madaniyat yodgorliklari Bosh ilmiy-ishlab chiqarish boshqarmasi tasarrufidagi tashkilotlar "O'zbekta'mirshunoslik instituti", "Qadriyat davlat korxonasi" Samarqand, Qarshi, Shahrisabz va Termiz shaharlarining ilmiy ustaxonalari bilan hamkorlikda ushbu hududlarda joylashgan yubiley obyektlari shu yillarda bosqichma-bosqich ta'mirlandi³⁵. Shuningdek, 1995-yildagi qarorga, asosan, 22 ta tarixiy-me'moriy yodgorliklarda jami 157,65 mln. so'm miqdoridagi ta'mirlash va tuzatish ishlari bajarilgan bo'lib, ushbu tarixiy obyektlar qatoriga Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi Dorus-Saodat va Dorut-Tilovat, Oqsaroy arki, Chubin madrasasi, tarixiy qal'a devorlari, Qarshi shahridagi Qashqadaryoning qadimiy ko'prigi, Ko'kgumbaz masjidi, ko'hna hammom va Qilichboy madrasasida 64,75 mln. so'mlik tuzatish ishlari olib borilganligini ko'rsatib o'tish mumkin³⁶.

Ushbu tadbirlar davomida Surxondaryo viloyatida joylashgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarda ham bir qator tuzatish va mustahkamlash ishlari olib borilgan. Xususan, mazkur viloyatning Termiz shahridan uncha uzoq bo'lmagan masofada joylashgan Sulton Saodat tarixiy-me'moriy majmuasida 1,4 mln. so'mlik ta'mirlash va qayta tiklash ishlari, "O'zbekta'mirshunoslik" instituti tomonidan 10,82 mln. so'mlik ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlari, "Qadriyat" davlat korxonasi tomonidan 13,03 mln. so'm pul mablag'lari miqdorida me'moriy bezaklarni ilmiy ta'mirlash ishlari bajarilgan³⁷. 1996-yilning birinchi choragida Amir Temur nomi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarga jami 61,6 mln. so'm miqdoridagi ta'mirlash, qayta tiklash va mustahkamlash ishlari olib borilgan³⁸.

Qarshi shahrining 2700 yilligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-sentabrdagi 452-sonli va Qashqadaryo viloyat hokimining 2004-yil 15-oktabrdagi X-417/10-sonli qarorlari asosida Qarshi shahridagi tarixiy-me'moriy yodgorliklar hududida keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqotlar olib borildi³⁹. Jumladan, O'zFA Arxeologiya institutining A. Rayimqulov boshchiligidagi ilmiy xodimlari qadimiy Odina majmuasi hududida ilmiy izlanishlarni amalga oshirdilar⁴⁰.

³³ O'zMA, M-7 fond, 1-ro'yxat, 503-ish, 77-78-varaqlar.

³⁴ O'zMA, M-7 fond, 1-ro'yxat, 503-ish, 77-78-varaqlar.

